

MA’NAVIYAT HAQIDA

Davronov Z.D*TMI, fals.f.d., prof.***Mavlyanov U.N***f.f.b.f.d., PhD*

Annotatsiya. *Mazkur matnda ma’naviyat tushunchasining mohiyati, uning inson shaxsini shakllantirishdagi o‘rni, jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati keng yoritilgan. Ma’naviy qadriyatlarining tarixiy ildizlari, milliy o‘zlik va axloqiy tarbiya bilan bog‘liqligi, mustaqil O‘zbekiston davridagi ma’naviyat siyosati, buyuk ajdodlarimizning merosi orqali shakllangan ma’naviy tamoyillar tahlil etilgan. Matnda yoshlar tarbiyasida, zamonaviy axborot muhitida ma’naviy immunitetni shakllantirish zaruriyati alohida ta’kidlanadi. Asar insoniy barkamollik, milliy qadriyat va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirgan holda yurt ravnaqi uchun ma’naviyatning hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar. *Ma’naviyat, axloq, qadriyat, milliy o‘zlik, tarbiya, yoshlar, jamiyat, ruhiy dunyo, ma’rifat, O‘zbekiston.*

Annotation. *This text explores the concept of spirituality (ma'naviyat), emphasizing its essential role in shaping individual personality and fostering social development. It analyzes the historical roots of moral values, their connection to national identity and ethical upbringing, and the state policy on spiritual growth in independent Uzbekistan. The text also discusses the legacy of great scholars and the importance of instilling spiritual resilience among youth in the modern information age. The work highlights that spirituality, when harmonized with moral integrity, national values, and social responsibility, serves as a decisive factor in the progress of a nation.*

Key words. *Spirituality, morality, values, national identity, upbringing, youth, society, inner world, enlightenment, Uzbekistan.*

Ma’lumki, oxirgi yillarda ma’naviyat haqida juda ko‘p mulohazalar, oddiy fikrlar, falsafiy qarashlar hamda uning o‘rni va ahamiyati, mazmun va mohiyati haqida ijobiy qarashlar o‘rtaga tashlanmoqda. Bu bejiz emas albatta. Chunki, sobiq ittifoq davrida ma’naviyat xalqimizning qalbida saqlangan bo‘lsa-da, ammo bu falsafiy tushunchani tilga olishning o‘zi mushkul edi.

U asosan ideologiya, ya’ni mafkura bilan qorishib ketgan edi. Ming shukrlar bo‘lsinkim, mustaqillik sharofati ila ma’naviyat tushunchasi o‘zining maqomiga ega bo‘la boshladi. Bu endilikda sir emas. Mamlakatimiz taraqqiyotining barcha sohalari kabi mazkur sohada ham

sezilarli o‘zgarishlar bo‘ldi. Jumladan, I.Karimov Prezident etib saylangan kuni – 1990 yil 24 martdayoq ma’naviyat haqida so‘zlab: “Prezident faoliyatining, respublika davlat tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri – xalqni, insonni axloqiy va ma’naviy yuksaltirishdir” degan bo‘lsa, shu mavzuni keyinroq davom ettirib: “Men Prezident sifatida odamlarning ma’naviy tarbiyasi, tinchlik va xayrli ishlar maqsadida harakat qilayotgan har bir kishini qo‘llab-quvatlayman. U bilan hamkorlik qilaman”, - deb ta’kidlagan edi. Shu kabi fikrlar 1992 yilning 5 apreli va 2 iyulida Oliy kengashning sessiyasida, 31 avgustdagi mustaqillikning bir yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzada, 8 dekabrda Oliy kengashning 11 sessiyasida, Viloyat, shahar va tuman hokimlari bilan uchrashuvlarda, 1993 yil 6 martda Oliy Kengashning 12 sessiyasidagi, aprel oyidagi qalam ahli bilan bo‘lgan uchrashuvda, 31 avgustda Amir Temur haykalining ochilishida, 2 sentyabrdagi Oliy kengashning 13 sessiyasidagi ma’ruzalarida aytilgan. I.Karimov ma’naviyatning ahamiyati, qadr-qiymati, buguni va kelajagi haqida qayg‘urib, o‘z mulohazalarini bildirganki, bu sohadagi izchillikni ko‘rib hayratda qolasan kishi. Men I.Karimovning ikki-uch yil ichida aytgan fikrlarini eslatar ekanman, uzoqni ko‘zlab aytilgan o‘sha fikrlarning hayotga tatbiq etilganini va etilayotganini ko‘rib beixtiyor quvonaman. Fikrimni tasdig‘i sifatida shuni aytmoqchimanki, o‘tgan asrning 90-yillarida hozirgi davrlardagidek terrorism, diniy ekstremizm, giyohvandlik, bir jinsdagi kishilarning turmush qurishlari, dunyoning u yoki bu chetida qirg‘inbarot urushlarning kelib chiqishi, qisqa qilib aytganda, ma’naviyatsizlik, ma’naviy inqiroz haqida, ilg‘or deb atalgan mamlakatlarda ham deyarli so‘z yuritilmas edi. Agar haqiqatdan ham ma’naviyatga e’tiborsizlik bilan qaralsa avvalo, tabiat va inson kelajagini xonavayron qilishga olib borilmaydimi? Buyukman deb atalayotgan mamlakatlar tabiatdagi foydali qazilmalar, suv resurslarining, cheklanganligiga qaramasdan o‘z manfaatlari yo‘lida ayovsiz foydalanmoqdalar. Amerika konstitutsiyaviy sudi, Yevropaning bir qancha mamlakatlaridagi ba’zi doiralar bir jinsli insonlarning turmush qurishiga xayrixohlik bilan qarashi eng yomon illat. Bunday holatlar yuzasidan qonunlarning chiqarilishi yuksak ma’naviyatlilikdanmikin?

Bunday yondashish tabiiyki insoniylikni, insonni o‘zini asrash emasku. Kelajak avlodni esdan chiqarish emasmi? Ollohga shirk keltirib insonni laboratoriyada yaratish ishlariga harakat qilayotganlarda barkamollik, komillik tugul yuksak ma’naviyat bormi deging keladi. Ana shu jarayonlarni qalbdan his qilgan Birinchi Prezidentimiz “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarini yozdiki, ushbu asarni nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari tillariga (beshta), balki arab, turk tillariga ham tarjima qilinib, Misr arab respublikasi, Saudiya Arabistoni podshohligi, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn kabi mamlakatlarda taqdimot marosimlari o‘tkazildi. Demak, yuksak ma’naviyat yildan yilga o‘z dolzarbligini namoyish etib bormoda.

Ma’naviyat tushunchasining mazmuni haqida gapirganda I.Karimov: “Insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan o‘rin tutadi”, - deb ta’kidlaydi. Demak, insoniylik yuksak ma’naviyatda, yuksak ma’naviyat insoniylikdadir. To‘g‘ri, ma’naviyatga ko‘plab ta’riflar berilgan, bundan keyin ham beriladi. Sababi inson tabiati, jamiyat hayoti bir joyda to‘xtab qolmaydi. Lekin baribir bizning fikrimizcha, insonning hayot negizi uning ma’naviyatiga borib taqalaveradi. Shu sababli ham, I.Karimov: “Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir”, - deb ta’rif bergan. Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, inson mohiyati jihatidan birlamchi o‘ringa qo‘yilgan. Bu ta’rifda kelajakda beriladigan barcha ta’riflar uchun metodologik (uslubiy jihatdan) asos bor. To‘g‘ri, ma’naviyat tushunchasiga har qanday ziyoli inson o‘zining dunyoqarashi, falsafiy yondashuvi va e’tiqodi, ongi, his-tuyg‘usi jihatidan yondashadi, ta’riflaydi, xususiyatlarini tushuntiradi. Inson o‘zining ma’naviyatida aks etishi tabiiy albatta. Birov marhamatli yoki badjahl, birov mehnatsevar yoki dangasa, birov manman yoki kaltafahm, birov baxil yoki saxiy, birov yoqimli yoki yoqimsiz va hokazolar bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan insonlar farqlanadilar.

Demak, ma’naviyat tushunchasi keng qamrovli umumiy falsafiy tushuncha bo‘lganligi uchun uni hayotda qo‘llash va mazmun-mohiyatini aniq tasavvur qilish davr taqozosidir. Afsuski, ma’naviyat tushunchasini iste’molga kiritganda uning qarama-qarshi tomonlarini ba’zilar unutadi. Hatto ta’kidlash lozimki, ba’zi bir murabbiylar ham bunga e’tiborni qaratmaydilar. Ular ma’naviyat deganda faqat ijobiy jihatlar nuqtayi nazaridan yondashadilar, xolos. Holbuki, bu tushunchaning ikkinchi qismi ma’naviyatsizlikdir. Bu jihatni ta’kidlashimdan maqsad ma’naviyat haqida so‘z yuritilganda, ayniqsa, tarbiyaviy jihatlarda ushbu tomonni ham esdan chiqarmaslik lozim. Bunday xulosaga kelishimning sababi, ko‘pgina ommabop va ilmiy maqola, risola, qo‘llanma, darsliklarda ma’naviyatsizlik so‘ziga deyarli jiddiy yondashilmaydi. Misollar bilan tushuntirilmaydi. Go‘yoki butun insoniyat to‘la ma’naviyatli. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, oramizda kimdir “rahmon” izmida yursa, kimdir “shayton” izmida yuradi. Shu bois ma’naviyatsizlikka ham e’tiborni qaratish ayni muddaodir. Aslida, qisqa qilib, ma’naviyatsizlik ma’naviyatlikning aksidir deb tushuntirish ham mumkin. Ammo mening ko‘p yillik tajribam shuni ko‘rsatadiki, birorta tarbiyachi yoki ma’ruzachi bunga e’tiborni qaratgan emas. Zero, ma’naviyatsizlik – bu inson va insonlarning ijobiy faoliyatiga zid bo‘lgan hodisalar va zararli xislatlardir. Bu ta’rifni isbotlaydigan son-sanoqsiz misollar bisyor. Muammoga bunday yondashish ayniqsa, yoshlar faoliyati bilan bog‘liq. Zararli oqibatlar har qadamda uchraydi. Ularni yoshlarning barchasi ham to‘la tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ham mening fikrimcha, ularga ma’naviyatsizlikning, mazmun-mohiyatini chuqur anglashini lozim deb bilaman.

Ma’naviyat tushunchasiga yalpi jihatdan yondashib xulosa qilib yurish unchalik yaxshi natija bermaydi.

Aslini olganda, umumiy ma’naviyatni bosqichlardan iborat ekanligiga etiborni qaratish lozim. Mening fikrimcha, umumiy ma’naviyat – ma’naviyat – yuksak ma’naviyat – barkamollik – komillik kabi tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim. Afsuski, ushbu maqolada hajmni hisobga olib ular ustida to‘xtalishni iloji bo‘lmadi. Bu haqida maqola muallifining “Barkamollikka da’vat maktublari”, (Toshkent. “Tamaddun”, 2017.) kitobida o‘qish mumkin.

Ma’naviyat so‘zin, qila ol tahlil ,

Bu so‘zda mujassam yaxshi–yomonlik.

Yaxshilik ishlarin, qilaver tetik,

Ma’naviy yuksalsang, kelar yaxshilik.

Ma’naviyat inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u kishilarning ichki dunyosini, axloqiy qarashlarini, e’tiqodini, qadriyatlar tizimini, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi. Ma’naviyat tushunchasi qadim zamonlardan beri insoniyat tafakkuri, din, falsafa, adabiyot, san’at, axloq va ijtimoiy hayotning markaziy masalasi bo‘lib kelgan. Uning asosiy mohiyati shundaki, u insonni hayvoniy tabiatdan ajratib turadigan, uni mukammallikka, ezgulikka, insoniylikka, barkamollikka yetaklaydigan ichki kuchdir. Har qanday jamiyatda, ayniqsa, mustaqil davlat qurish yo‘liga chiqqan mamlakatlarda ma’naviyatni rivojlantirish, uni asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida targ‘ib qilish dolzarb masalalardan biridir.

Ma’naviyat ijtimoiy ongning bir shakli sifatida kishilarning ruhiy olamini, dunyoqarashini, intilishlarini shakllantiradi. U tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan an’analar, urf-odatlar, axloqiy me’yorlar, e’tiqodlar, diniy qarashlar, madaniyat, san’at, adabiyot, fan va boshqa omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan, har bir xalqning o‘ziga xos ma’naviy qadriyatlari mavjud bo‘lib, ular o‘sha xalqning hayot tarzini, dunyoqarashini, xulq-atvorini belgilaydi. Ma’naviyatning shakllanishida milliy mentalitet, tarixiy tajriba, diniy qarashlar, ma’rifiy harakatlar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ma’naviyatni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirishga katta e’tibor qaratildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Ma’naviy taraqqiyotsiz milliy taraqqiyot bo‘lishi mumkin emas” degan g‘oyani ilgari surib, mustaqil O‘zbekistonni qurishda avvalo inson omiliga, uning tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlariga tayanishni asosiy tamoyil deb belgiladi. U o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida jamiyat taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rni haqida chuqur mulohazalar yuritib, ma’naviy yetuklikka erishmagan jamiyatda hech qachon ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlagan.

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ham bu masalaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosan inson manfaatlariga asoslangan, ma’naviy yangilanish va milliy tiklanishni o‘zida mujassam etgan siyosiy falsafadir. Davlatimiz rahbari o‘z nutqlarida jamiyatni yangilashda, yangi avlodni tarbiyalashda, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ma’naviy qadriyatlarning hal qiluvchi o‘rin tutishini alohida ta’kidlaydi. Xususan, yoshlar tarbiyasida o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi, buyuk allomalarning asarlari, diniy-axloqiy ta’limotlar asos qilib olinmoqda.

Ma’naviyat inson shaxsining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Har bir insonning ichki dunyosi, uning axloqiy pozitsiyasi, jamiyatga nisbatan mas’uliyat hissi ma’naviyat orqali namoyon bo‘ladi. Barkamol inson tushunchasining asosini ham ma’naviyat tashkil etadi. Barkamol avlod deganda nafaqat bilimli, balki yuqori axloqiy fazilatlarga ega, vatanparvar, halol, vijdonli, mas’uliyatli inson nazarda tutiladi. Shunday insonni tarbiyalashda oilaning, ta’lim muassasalarining, ommaviy axborot vositalarining, jamoat tashkilotlarining, ayniqsa, davlat siyosatining ahamiyati katta.

Ma’naviyatning asosiy ko‘rinishlaridan biri axloqdir. Axloq – bu kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan me’yorlar, odatlar, qadriyatlar tizimidir. Insonning harakatlari, muomalasi, niyatlari va ongli tanlovlari axloqiy asosga tayanadi. Shu boisdan, ma’naviyatni rivojlantirishda axloqiy tarbiyaning o‘rni alohida ta’kidlanadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida, axborot oqimi cheksiz sur’atlarda o‘sayotgan, turli buzuq g‘oyalar, begona madaniy xurujlar kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarni mustahkam ma’naviy asosda tarbiyalash muhim vazifadir.

Bugungi kunda jahonda ma’naviy inqiroz, ruhiy tushkunlik, shaxsiyatning yemirilishi kabi holatlar ko‘plab ijtimoiy muammolarga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, G‘arb madaniyatida individualizm, hedonizm, materialistik dunyoqarash kuchayganligi insonni jamiyatdan yiroqlashtirayotgan, uni yolg‘izlikka, ma’naviy tushkunlikka olib borayotgan omillardan biri sifatida talqin qilinmoqda. Shunday bir sharoitda, Sharq xalqlarining, xususan, o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari, jamoaviylik, mehr-oqibat, sabr-toqat, hurmat-ehtirom kabi fazilatlari universal insoniy qadriyatlar sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviyat shunchaki diniy e’tiqod yoki urf-odatlar majmuasi emas, balki inson tafakkurining, ijtimoiy mas’uliyatining, dunyoga, boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatining butunligidir. U nafaqat odamlarni birlashtiradi, balki jamiyatda yagona axloqiy me’yorlar, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, adolat, mehr-oqibat muhitini shakllantiradi. Shu sababli, har qanday ijtimoiy islohot, taraqqiyot harakati ma’naviy asosga ega bo‘lmasa, muvaffaqiyatli bo‘lishi qiyin.

O‘zbekiston tarixida buyuk allomalar, mutafakkirlar, avliyolar, shoirlar, olimlar orqali ma’naviyatning yuksak namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamakhshariy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi zotlar o‘z asarlari, ibratli hayoti orqali nafaqat diniy-falsafiy tafakkurga, balki xalqimizning ma’naviy dunyoqarashiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Ularning merosi bugun ham ma’naviy tarbiyaning muhim manbai sifatida e’tirof etiladi. Xususan, tasavvufiy qarashlarda inson qalbining poklanishi, nafsni tiyish, ichki mukammallikka intilish, jamiyatda ezgulik tarqatish kabi tushunchalar ustuvor bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida “Ma’naviyat va ma’rifat” targ‘ibot markazi, Respublika g‘oyaviy-ma’rifiy markazi, “Yuksalish” umummilliy harakati, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi kabi tashkilotlar orqali ma’naviy-ma’rifiy ishlar keng yo‘lga qo‘yildi. Bu yo‘nalishda targ‘ibotchilar korpusi, olimlar, pedagoglar, jamoat arboblari ishtirokida xalq orasida, ayniqsa, yoshlar orasida ma’naviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan turli tadbirlar, seminarlar, ma’ruzalar, kitob nashrlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar sharoitida ma’naviyatni yangi shakllarda targ‘ib qilish, ijtimoiy tarmoqlarda, raqamli platformalarda yosh avlodni ruhiy boyitishga xizmat qiladigan kontentlarni yaratish ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Yoshlarning smartfon, internet, ommaviy madaniyat bilan to‘qnash kelgan muhitda o‘z milliy g‘ururi, tarixiy xotirasi, diniy-axloqiy me’yorlariga sodiq bo‘lib qolishini ta’minlash uchun ma’naviy tarbiya bo‘yicha tizimli ishlar zarur. Shu ma’noda, o‘quv dasturlariga milliy qadriyatlar asosida yaratilgan darsliklar, o‘quv filmlari, badiiy adabiyotlar kiritilishi, ma’naviyat bilan shug‘ullanuvchi pedagoglar tayyorlash ta’lim siyosatining ajralmas qismi bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviyat – bu insoniyat taraqqiyotining ma’rifiy negizi, jamiyatning axloqiy tayanchi, millatning ruhiy kuchi va vijdonidir. Undan voz kechgan jamiyat yuksalishdan to‘xtaydi, inqirozga yuz tutadi. Shu sababli har bir oila, har bir maktab, har bir tashkilot ma’naviy tarbiya bilan jiddiy shug‘ullanishi, yoshlar qalbiga ezgulikka intilish, vatanparvarlik, poklik, halollik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirishi lozim. Ma’naviyat nafaqat bugunning, balki kelajakning barqaror poydevori, avlodlar davomiyligini ta’minlovchi muqaddas zaminidir.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. Nasriddinovich, M. U. (2025). ALLOMANING MEROSI HAQIDA VA'ZI MULOHAZALAR. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 2(22), 12-16.
2. Мавлянов, У. Н. (2018). Жизнь и творчество Али Сафи. *Наука и образование сегодня*, (1 (24)), 42-44.
3. Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.
4. Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.
5. Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.
6. Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОИЙ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.
7. Мавлянов, У. Н. (2022). ONTOLOGICAL VIEWS OF ALI SAFI. *ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*, (1 (16)).
8. Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.
9. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT “THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR”. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.
10. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.
11. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.
12. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.
13. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.
14. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.
15. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

16. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

17. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.

18. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O‘ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.

19. Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOYILLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 203-214.

20. Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXELOGIYASI TADQIQOTLARIDAN. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 192-202.

21. Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 613-619.

22. Davron O‘g‘li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.

23. Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXELOGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 606-612.

24. Davron o‘g‘li, A. D. (2025). O‘RTA OSIYO KO‘CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O‘RGANILISHI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 100-113.

25. Nematov, R. A., & Almanov’s, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.

26. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.

27. Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

28. Неъматов, Р. (2023). Хоразм Африғийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.

29. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF

PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

30. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

31. Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), 14-23.

32. Ne'matov, R. (2023). ILK O 'RTA ASRLARDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Interpretation and researches*, 1, 21.

33. Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. *Наука, образование и культура*, (4 (48)), 85-87.

34. Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. *American Journal of Philological Sciences*, 5(02), 10-16.

35. Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 72-78.

36. Неъматов, Р. А. Ў. (2024). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 377-382.

37. Nematov, R. A. (2024, December). ESTABLISHMENT OF THE ADMINISTRATION OF THE WESTERN TURKISH EMPIRE IN THE KHORAZM OASIS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 2, pp. 43-49).

38. Исроилов, М. Я. (2019). Образование и его развитие в Узбекистане. *Academy*, (5 (44)), 48-49.

39. Исроилов, М. Я. (2015). Влияние использования Интернет-ресурсов на повышение эффективности обучения истории. *Наука, техника и образование*, (5 (11)), 147-148.

40. Исроилов, М. (2024). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС: ТАРИХИЙ ПОЙДЕВОР ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 419-423.

41. Исроилов, М. Я. (2016). РОЛЬ РАЗЛИЧНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБРЯДОВ И ЦЕРЕМОНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОЛОМ И ВОЗРАСТОМ, В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ И ЭТНОГРАФИИ УЗБЕКОВ. In *Люди, культуры, пространство: социокультурная динамика мира Евразии* (pp. 231-235).

42. Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

43. Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

44. Yuldashevich, A. U., & Musurmonkulovich, M. S. From the Ethnic History of the Population of Ustrushana. *JournalNX*, 7(04), 37-41.

45. Алибеков, У. Ю., & Маматов, Ш. М. (2021). О РОДЕ «БАЯУТ» В СОСТАВЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА. In *МИР ЕВРАЗИИ: ОТ ДРЕВНОСТИ К СОВРЕМЕННОСТИ* (pp. 153-159).

46. Мирзалиев, У. Б., & Маматов, Ш. М. (2012). ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ И ПРОБЛЕМА ЗАНЯТОСТИ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ. In *ИССЛЕДОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЩЕСТВА И ФОРМИРОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ* (pp. 227-228).

47. Musurmonqulovich, M. S. (2025). MIRZACHO ‘LNING SHIMOLIY G ‘ARBIY KARVON YO ‘LI SARDOVARLARI. *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 1117-1129.

48. Musurmonqulovich, M. S. (2025). SHIMOLIY USTRUSHONA KARVON YO ‘LIDAGI URBANIZATSION JARAYONLAR VA SHAHARSOZLIK MADANYATI. *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 1166-1178.

49. Musurmonqulovich, M. S. (2025). MIRZACHO ‘LNING SHARQIY SIRDARYO SO ‘L SOHILI KARVON YO ‘LI. *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 1130-1142.

50. МАМАТОВ, Ш., & АЛМАНОВ, Қ. ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ XIX АСР ОХИРИ–XX АСР БОШЛАРИДА ЭТНИК ТАРКИБИГА ДОИР ЁЗМА МАНБАЛАР. *O ‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2022,[1/6] ISSN 2181-7324.

51. Алибеков, У., & Маматов, Ш. ҚАДИМИЙ МИРЗАЧЎЛДА ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.

52. Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.

53. Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.

54. Шодмонкулова, М. (2025). ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 176-181.

55. Шодмонкулова, М. (2025). ФАРБ ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 164-169.

56. Шодмонкулова, М. (2025). Либерал-Демократик Ғояларнинг Тараққиёт Стратегиясини Амалга Оширишдаги Ўрни. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 170-175.

57. Шодмонкулова, М. (2025). ЎРТА СИНФ-МУЛҚДОРЛАР СИНФИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 152-156.

58. Шодмонкулова, М. М. (2025). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА СИЁСИЙ ЛИБЕРАЛИЗМНИНГ АҲАМИЯТИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 4(38), 354-357.

59. Шодмонкулова, М. М. (2025). Мутафаккирлар Фаолиятида Либерализм Ғоясининг Аҳамияти. *Miasto Przyszłości*, 60, 110-112.

60. Galiyev, S. (2024, September). O ‘ZBEKISTONDA IMKONIYATI SHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

61. Galiyev, S. (2024). O ‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O ‘RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.

62. Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o‘g‘li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO ‘CHMANCHILIK FENOMENINING O ‘RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

63. Vildanovich, G. S., & Axmatkulovich, A. A. Xoshimjon o‘g‘li, RI (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO_ CHMANCHILIK FENOMENINING O_ RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

64. Hakimova, S., & Galiyev, S. (2025). INGLIZ PARLAMENTING TARIXIY O ‘ZGARISHLARI. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 157-163.

65. Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).

66. Komil o‘g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). ХОРАЗМ МА’МУН АКАДЕМИЯСИ ВА БАЙТУЛ-ҲИКМА ОЛИМЛАРИ О ‘RTASIDAGI O ‘ZARO НАМКОРЛИК. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 305-311).

67. Komil o‘g, M. R. S., Hoshimjon o‘g‘li, R. I., Mamatkarimovna, A. Z., & Vildanovich, G. S. (2025, May). GERMANIYA IMPERIYASI 1870–1918 YILLARDAGI

KOLONIAL REJALARIDA MARKAZIY OSIYONING O‘RNI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 31, pp. 277-280).

68. Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3), 40.

69. Nazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(3), 66-64.

70. ALMANOV, Q. (2024). JIZZAX VOHASIDAGI ETNOOYKONIMLAR TO ‘G‘RISIDA BA‘ZI MULOHAZALAR. «*АКТА NUUZ*», 1(1.3. 1), 4-8.

71. Qakhramon, A. (2024). ELUCIDATION OF THE ETHNIC COMPOSITION OF THE INHABITANTS OF THE JIZZAKH OASIS IN THE HISTORIOGRAPHY OF THE PERIOD OF INDEPENDENCE. *Наука и инновации в системе образования*, 3(14), 156-165.

72. Almanov, Q. (2024). XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA JIZZAX VOHASIDAGI MA‘MURIY BIRLIKLARNING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING ETNOMADANIY JARAYONLARDA ISHTIROKI (ARXIV VA STATISTIK MATERIALLAR ASOSIDA). *Modern Science and Research*, 3(12), 823-830.

73. Almanov, Q. (2024). JIZZAX VOHASI YER OTLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIM, ANTROTOPONIM, PATRONIM VA KASB-HUNAR BILAN BOG‘LIQ NOMLAR. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 99-109.

74. Obloqulovich, Q. A. (2024). XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA JIZZAX VOHASIDAGI MA‘MURIY BIRLIKLARNING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING ETNOMADANIY JARAYONLARDA ISHTIROKI (ARXIV VA STATISTIK MATERIALLAR ASOSIDA).

75. Almanov, K. (2024). ON THE STUDY OF THE ANCIENT HISTORY OF THE JIZZAKH VALLEY. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 4(12), 57-61.

76. ALMANOV, Q. (2024). JIZZAXNING CHUBAR ELI VA UNING QISQACHA TARIXI. «*АКТА NUUZ*», 1(1.1), 1-4.

77. Облакулович, А. Қ. (2024). ЖИЗЗАХ ВОҲАСИДАГИ БОШҚА ХАЛҚЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ТОПОНИМЛАР (ЭТНОТОПОНИМЛАР). *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 474-480.

78. Obloqulovich, Q. A. (2023). STUDY OF THE ETHNIC COMPOSITION OF THE POPULATION OF THE JIZZAKH OASIS IN THE FIRST QUARTER OF THE XIX–XX CENTURIES. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(12), 12-16.

79. Облокулович, А. Қ., & Мамараджабов, Ж. (2022). ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ ЎЗБЕК УРУҒЛАРИНИНГ ЗООЛАТРИК САЖДАЛАРИ (АРХЕОЛОГИК ВА ЭТНОЛОГИК МАТЕРИАЛЛАР АСОСИДА). *RESEARCH AND EDUCATION*, 158.

80. Almanov, Q. (2022). XIX ACP OXIRI–XX ACP BOŞLARI DA JIZZAX VOXASI ETNOMADANIY MUXTIDA QIRQLAR VA QANGLILAR. *Science and innovation*, 1(C8), 241-252.

81. Almanov, Q. O. (2020). POLITICAL-ADMINISTRATIVE UNITS OF USTRUSHANA AND THEIR ADMINISTRATIVE CENTRES. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 37-45.

82. Алманов, Қ. ЖИЗЗАХНИНГ ХОНЛИКЛАР ДАВРИДАГИ АҲАМИЯТИ ВА МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 76.

83. АЛМАНОВ, Қ. ЖИЗЗАХ ВОҲАСИДА ЎЗБЕК ЭТНОГРАФИК ГУРУҲЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЭТНИК НОМЛАР.

84. Obloqulovich, Q. A. (2023). STUDY OF THE ETHNIC COMPOSITION OF THE POPULATION OF THE JIZZAKH OASIS IN THE FIRST QUARTER OF THE XIX–XX CENTURIES. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(12), 12-16.

85. Almanov, Q. Ethnocultural Processes Took Place In Ustrushan During The Western Turkish Khanate.

86. Алманов, Қ., & Жураев, И. XX-XXI ACP BOŞLARI DA MIRZACHUL VOXASI AHO LISINING XUJALIK TURMUŞ TAPZI VA MODDIY MADANIYATI. *ЎТМИШГА НАЗАР*, 68.

87. Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.

88. Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.

89. Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.

90. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.

91. Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.

92. Mavlyanov, U. (2022). ABOUT “THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR”. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.

93. Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.

94. Мавлянов, У. Н. (2022). ONTOLOGICAL VIEWS OF ALI SAFI. *ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*, (1 (16)).

95. Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОИЙ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.

96. Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.

97. Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.

98. Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.

99. Мавлянов, У. Н. (2018). Жизнь и творчество Али Сафи. *Наука и образование сегодня*, (1 (24)), 42-44.

100. BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

101. Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, (3 (18)), 151, 312.

102. Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

103. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

104. Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

105. Akhmatkulovich, A. A. Xoshimjon o'g'li, RI (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).